

**TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI DAVOLASH  
YO'NALISHI TALABASI**

Xurramova Dilnoza Elyor qizi

Onkologiya etikasi

[xurramovadilnoza49@gmail.com](mailto:xurramovadilnoza49@gmail.com)

**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada kattalarda va bolalarda onkologik kasalliklarning kelib chiqishi va kasalliklarni kechishi, uning psixik-ruhiy holati haqida ilmiy fikrlar keltiriladi. Kattalarni va bolalarni davolashda, avvalambor, ularning psixik holatini o'rganish lozimligi maqolada asosiy o'rin tutadi.

**Kalit so'zlar:** Onkologiya, kasallik, bemor, saraton, ekologik holat , profilaktika , xavfli o'sma, kamqonlik , zararli odatlar

Onkologiya (yun. onkos — shish, o'sma va logiya) — tibbiy-biologik fan . Onkologiya - bu o'smalarni o'rganish, davolash, tashxis qo'yish va oldini olish bilan shug'ullanadigan tibbiyot sohasidir .

Ko'p yillar davomida saraton kasalligi bilan og'rigan bemorga uning tashxisi to'g'risida xabar berish yoki bermaslik muhokama qilinmoqda. Bu muammo birinchi navbatda tibbiy an'anaga asoslanadi. Bemordan tashxisni yashirganda, savol tug'iladi. Bunday sukunatdan nima ko'proq foyda yoki zarar na shifokorlar, na psixologlar, na deontologlar ham aniq ayta olmaydi. Bir tomondan, insonning huquqi unga nima bo'layotganini bilish, lekin boshqa tomondan, salbiy oqibatlari bunday bilim, o'lim qo'rquvi, "kanserofofiya"ga olib kelishi mumkin. Bugungi kunga kelib, ko'payib borayotgan onkologlar saraton tashxisini yashirmaydilar. Bemorlardan, ayniqsa, radikal davolash osonroq bo'lgan uning shakllari. Shifokorlarning 27 foizi ijobiy javob bergan, 46 foizi esa salbiy javob bergan.

Ayollarda uchraydigan onkologik kasalliklar :

Ayollarda uchraydigan onkologik kasalliklar juda jiddiy muammo hisoblanadi. Bu kasalliklarning oldini olish uchun ayollarimizga bir yilda bir marta tibbiy ko'rikdan o'tish tavsiya qilinadi. Barchamizga ma'lumki onkologik kasalliklar hech qanday simptomlarsiz, birorta belgilarsiz vujudga keladi. Oqibatda ularni aniqlash imkoni judayam qiyinlashadi. Kasallik qancha kech aniqlansa, kasallik darajalariga qarab ularni davolash imkoniyati ham ancha pasayadi. Onkologik kasalliklar qancha tez



tashxis qo'yilib, erta aniqlansa ularga qarshi kurashish shuncha osonlashadi. Bugungi kunda dunyoda ko'krak bezi saratonidan keyingi o'rinda bachadon bo'yni va bachadon tanasi raki judayam ko'p uchraydi. Ko'p hollarda ayollar kechikib murojaat qilishadi. Buning sababi ham bor. Kasallik belgilersiz rivojlanadi.

**Kasallikning kelib chiqish sabablari va davolash :**

Kasalliklarning kelib chiqish sabablari bo'yicha nazariyalar judayam keng qamrovli bo'lib, aniq bir sababni keltirish qiyin. Gormonal statusning o'zgarishi, stress holati, ortiqcha vazn va moddalar almashinuvi buzilishlari onkologik kasalliklarning vujudga kelishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari nasliy omillar, tashqi muhitning o'zgarishi, ekologik holat hamda ko'pgina yuqumli kasalliklar ham kasallik rivojlanishiga ta'siri bor degan nazariyalar mavjud. Bugungi kunda O'zbekistonda onkologik kasalliklarni oldini olish bo'yicha katta dasturlar amalga oshirilmoqda. Kasallikni erta aniqlash uchun ayollardan bir yilda bir marta tibbiy ko'rikdan o'tib, o'zlarining sog'liqlariga befarq bo'lmasliklarini iltimos qilardik. Chunki onkologik kasalliklarni davolash judayam qiyin hamda katta mablag' talab qilinadi. Shuningdek, samara olish uzoqqa cho'zilib, oqibatda ayanchli holatlarga olib kelishi mumkin. Asosiysi onkologik kasalliklarni oldini olishda birinchi qilinadigan ish bu profilaktik ko'riklarni amalga oshirishdir. Sababi onkologik kasalliklar bugungi kunda yosharib bormoqda.

**Bolalarda uchraydigan onkologik kasalliklar:**

Onkologik kasalliklar nafaqat katta yoshdagi aholi, balki bolalar salomatligiga ham jiddiy ta'sir etayotgan muammolardan biridir. Mutaxassislarning fikricha, bunday kasalliklar profilaktikasiga oid tadbirlarni samarali tashkil etish va kasallikni erta bosqichda aniqlash orqali minglab bemorlarni sog'lom hayotga qaytarish mumkin. Bolalarda onkologik kasalliklar yuzaga kelishida embrional omillar asosiy o'rin egallaydi. Onkologik kasalliklar nafaqat katta yoshdagi aholi, balki bolalar salomatligiga ham jiddiy ta'sir etayotgan muammolardan biridir. Mutaxassislarning fikricha, bunday kasalliklar profilaktikasiga oid tadbirlarni samarali tashkil etish va kasallikni erta bosqichda aniqlash orqali minglab bemorlarni sog'lom hayotga qaytarish mumkin. Bolalar o'rtasida uchraydigan onkologik kasalliklar ichida gemablastozlar qariyb 40 foizni tashkil etadi. Shuningdek, markaziy asab tizimi o'smalari, neyroblastomalar, buyrak, suyak, yumshoq to'qimalar, quloq, tomoq, burun, jigar va jinsiy a'zolar xavfli o'smalari uchrab turadi.



— Bunday kasalliklar kelib chiqishining asosiy sabablari nimada va uning oldini olish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozim?

— Bolalarda onkologik kasalliklar yuzaga kelishida embrional omillar asosiy o'rin egallaydi. Bolalarda xavfli o'sma kasalliklarining oldini olish uchun, avvalo, ota-ona sog'lom bo'lishi, oilada sog'lom muhit yaratilishi, inson zararli illatlardan xoli bo'lishi, shuningdek, ekologik muhit musaffoligi juda muhim hisoblanadi.

— Bolada xavfli o'sma rivojlanayotganini qanday bilish mumkin?

— Bola holsizlanadi, kamqonlik rivojlanib boradi, tana harorati 37-37,5 darajagacha ko'tariladi. Bundan tashqari, tana vazni kamayadi, periferik limfa tugunlari, jag'osti, qo'ltiqosti, bo'yin, chovlarda limfa tugunlari kattalashadi. Ana shunday alomatlar kuzatilsa, bolani onkolog ko'rigiga yo'llash kerak. Bugungi kunda hududlarimizdagi tibbiyot muassasalarida bolalarda onkologik kasalliklarni erta aniqlash va davolash bo'yicha zamonaviy imkoniyatlar yaratilgan.

— Ba'zi bolalarda xalqimiz tilida nor, xol deyiladigan hosilalar bo'ladi. Bular bola uchun xavf tug'diradimi?

— Nor tibbiyot tilida gemangioma deb ataladi. Bundan tashqari, bolalarda limfangeomalar, suyak osteomalari, yumshoq to'qimalarda har xil xol ko'rinishidagi hosilalar uchrab turadi. Bular xavfsiz o'smalar hisoblanadi. Biroq ba'zilari xavfli o'smaga aylanishi mumkin. Shu bois, bolaning badanidagi bunday hosilalarni ota-ona o'z bilganicha bartaraf etishga urinishi, xollarni yulishga harakat qilish yoki har xil yog'lar surib yo'qotishga urinish aslo mumkin emas. Bu og'ir oqibatlariga ham olib kelishi mumkin. Agar bolaning badanida bunday hosilalar bo'lsa, albatta, bolani tegishli mutaxassis ko'rigidan o'tkazib, shifokor tavsiyalariga amal qilish lozim. Oilalarga kirib borganingizda ota-onalarga bu xususda yetarlicha tushuncha bersangiz bolalar salomatligini asrashga munosib ulush qo'shgan bo'lasiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://kun.uz/uz/news/2019/10/13/ayollarda-uchraydigan-onkologik-kasalliklar-ularni-qanday-aniqlash-va-davolash-mumkin>

2. <https://cyberleninka.ru/article/n/features-of-deontology-in-oncology/viewer>

3.1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).

<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Onkologiya>

4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Onkologiya>

5. СОЦИАЛЬНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ МОЛОДЫХ СОБСТВЕННИКОВ В СФЕРЕ СРЕДНЕГО И МАЛОГО БИЗНЕСА

